



**«OLMALIQ KMK»  
AKSIYADORLIK JAMIYATI**

**PRESS RELIZ**

**2025-yil 24-oktyabr**

**Mavzu: “Olmaliq KMK” AJ 3-Mis boyitish fabrikasi**

**O‘tkazilish joyi:** Toshkent viloyati, Olmaliq shahri, A.Temur ko‘chasi 42

3-Mis boyitish fabrikasi qurilish loyihasi jahonning eng ilg‘or texnologiyalari va yuqori sifat standartlarini qo‘llagan holda amalga oshirildi. U sohadagi eng yirik va strategik ahamiyatga ega sanoat obyektlaridan biri hisoblanadi.

2021 yil 29 iyul kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev Olmaliq kon metallurgiya kombinati negizida rangli va qimmatbaho metallarni ishlab chiqarishni kengaytirish borasidagi ishlar bilan tanishdi. Tashrif doirasida mamlakatimiz kon sanoatidagi eng yirik bo‘lgan “Yoshlik 1” konini o‘zlashtirish loyihasi doirasida yangi quvvat 3-mis boyitish fabrikasiga tamal toshini qo‘ydi.

Dunyodagi eng yirik kon-metallurgiya sanoati majmualari qatoridan joy olgan bu loyiha muhtaram Prezidentimizning alohida e‘tibori va qo‘llab-quvvatlashi evaziga shiddat bilan qad rostladi.

3-Mis boyitish fabrikasi ishga tushirilishi : jahon bozoridagi mis narxining o‘shish tendensiyalaridan samarali foydalanishga, O‘zbekistonning eksport daromadlarini ko‘paytirishga, mahalliy ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilishga hamda milliy iqtisodiyotda “Mis klasteri”ni tizimli rivojlantirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Yiliga 60 million tonna ma‘danni qayta ishlash quvvatiga ega 3-MBF nafaqat O‘zbekiston, balki butun Markaziy Osiyodagi eng yirik mis ishlab chiqaruvchi majmua bo‘lishi kutilmoqda. Fabrika yiliga 900 ming tonna yaqin mis konsentrati ishlab chiqaradi.

2025 yil 30 mart kuni fabrikada ilk mis konsentrati muvaffaqiyatli ishlab chiqarilishi loyihaning bosqichma-bosqich va yuqori sifat bilan amalga oshirilayotganining yorqin isbotidir.

Bugungi Yoshlik-I konidan qazib olingan 1,3 million tonnadan ortiq ma‘dan dastlab kon hududida maydalash jarayonidan o‘tkazilib, fabrikaga yetkazildi. Natijada 17 ming tonnadan ziyod mis konsentrati ishlab chiqarilib, Mis eritish zavodiga yuborildi.

3-MBFning yutug‘i faqat ishlab chiqarish hajmida emas, balki jahonning yetakchi sanoat kompaniyalari texnologiyalari, avtomatlashtirish tizimlari va raqamli boshqaruv

yechimlarining yagona zanjirda mujassamlashganida namoyon bo‘ladi. Bu fabrika dunyo tog‘-kon sanoatining eng ilg‘or texnika va innovatsiyalarini o‘z ichiga olgan majmua bo‘lib, O‘zbekistonni global sanoat xaritasida yangi bosqichga olib chiqmoqda.

Yangi fabrikaning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri – to‘liq avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimidir tatbiq etilganidir. Eng zamonaviy raqamli yechimlar va sun‘iy intellektni qo‘llagan holda tizim korxonaning butun texnologik siklini - rudani siklli-oqimli tashish va uni maydalashdan tortib, boyitish, suv ta‘minoti va chiqindilarni chiqindixonalarga olib ketish jarayonlarigacha qamrab oladi.

Markaziy dispetcherlik boshqaruv punktidan butun texnologik tsikl ko‘rinib turadi.

Energiya hisobi, ruda sarfi, suv ta‘minoti va yordamchi uchastkalar ishi bo‘yicha ma‘lumotlar bitta ekranga chiqaradi, shuningdek, asosiy ko‘rsatkichlarni - energiya sarfi hajmidan tortib dvigatel podshipniklarining haroratigacha ko‘rish mumkin. Bunday nazorat xavflarni o‘z vaqtida aniqlashga yordam beradi, to‘xtab qolish ehtimolini kamaytiradi va ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi. Tizim ishlab chiqarishning barcha bosqichlarini avtomatik rejimda boshqaradi va mintaqadagi yagona shunday loyiha hisoblanadi

Fabrika to‘liq quvvatga chiqqach, 3 670 dan ortiq yangi ish o‘rni yaratiladi. Hozirda 1 250 nafar xodim faoliyat yuritmoqda, ularning ko‘pchiligi 35 yoshgacha bo‘lgan yosh mutaxassislardir. Ular “Muhandislar maktabi” va “Olmaliq KMK” tarkibiy bo‘linmalarida amaliyot va malaka oshirish kurslarini o‘tamoqda.

“Yashil makon” umummilliy dasturi doirasida fabrika hududida keng ko‘lamli ko‘kalamzorlashtirish va obodonlashtirish ishlari olib borilmoqda. Tomchilatib sug‘orish tizimlari va eko-dizayn yechimlari sanoat va tabiat muvozanatini ta‘minlaydi.

Umumiy maydoni 196 gektar bo‘lgan 3 mis boyitish fabrikasi qurilishida 23 mingdan ziyod quruvchi va mingdan ortiq maxsus texnika ishtirok etdi. Qurilish jarayonida 788 ming m<sup>3</sup> beton quyildi, 109 ming tonna armatura, 69 ming tonna texnologik uskuna va 65 ming tonna metall konstruksiya montaj qilindi. Shuningdek, 279 ming metr texnologik quvurlar o‘rnatilib, 1,36 million metr elektr va 714 ming metr avtomatlashtirish kabellari yotqizildi.

3-MBF qurilishiga sarflangan metall konstruksiyalarga o‘nta Eyfel minorasini, temir beton sarfiga qariyb 2,5 ta Burj Halifa qurish mumkin. Bu o‘z o‘zidan 3-MBF ulkan megaloyiha ekanligini yana bir isbotlaydi.

Xulosa qilib aytganda, 3-Mis boyitish fabrikasi zamonaviy texnologiyalar, raqamli boshqaruv va inson kapitali uyg‘unligining amaliy namunasi. Bu loyiha nafaqat “Olmaliq KMK” AJ, balki butun O‘zbekiston sanoati uchun yangi bosqich va milliy iftixor timsoli hisoblanadi.

**OKMK Axborot xizmati**